**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALR VAZIRLIGI**
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

| **«KELISHILGAN»** | **«KELISHILGAN»** |
|---|---|
| Jismoniy tarbiya va sport fakulteti | O‘quv ishlari bo‘yicha: prorektor |
| dekani ________ A.Sh.Inoyatov | ________ R.G‘.Jumayev |
| «31» yanvar 2025 y. | «31» yanvar 2025 y. |

**5610500– Sport faoliyati (futbol) ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari**
**uchun ixtisoslik fanlaridan**
**yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon**
**DASTURI**

**Ixtisoslik fanlari:**

2.01. Jismoniy tarbiya va olimpia tarixi
2.13. Sport pedagokik mahoratini oshirish(futbol)
2.12. Sport menejmenti
3.01. Futbol nazariyasi va uslubiyoti

**Buxoro-2025**

## ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsadida jadal islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, jamiyatimizda yoshlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish - birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu bois, "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish - o'ta sharafli vazifadir. Shunday ekan yuksak malakali kadrlarni tayyorlash va ularni kerakli bilimlar bilan qurollantirish maqsadida jismoniy tarbiya va sportning jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlash, qolaversa, hozirgi kunda mamlakatimiz sportchilarining erishayotgan yutuqlari, sportchilarni ruhiy tayyorlashning o'ziga xos yo'llari hamda xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarini oshirish va takomillashtirish maqsadida ishlab chiqildi.

***Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazir Mahkamasining 13.12.2024 yildagi "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to 'g 'risida" gi 836-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o 'tkazish tartibi to 'g 'risida" gi Nizom asosida ishlab chiqilgan.***

**Tuzuvchilar:**

**F.I.Mo'minov** Sport faoliyati kafedrasi p.f.f.d. (PhD), professor;

**O`A.Farmonov** Sport faoliyati kafedrasi dotsenti;

**F.I.Mo'minov** Sport faoliyati kafedrasi p.f.f.d. (PhD), o'qituvchisi;

**R.S.Boymurodov** Sport faoliyati kafedrasi dotsenti;

**F.A.Narzullayev** Sport faoliyati kafedrasi katta o'qituvchisi;

**Taqrizchilar:**

**A.Sh.Inoyatov** - Jismoniy tarbiya va sport fakulteti dekani, p.f.f.d (PhD), dotsent,

**A.E.Sattorov** - Sport faoliyati kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD), professor



Dastur Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil 31-yanvardagi 6-Kengash qarori bilan tasdiqlangan

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazir Mahkamasining 13.12.2024 yildagi "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to 'g 'risida" gi 836-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o 'tkazish tartibi to 'g 'risida" gi Nizom asosida ishlab chiqilgan.

**Muqaddima**
**I. Umumiy qoidalar**
**II. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari**
**III. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi**
**IV. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi**
**V. Yakuniy qoidalar**

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga muvofiq oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibini belgilaydi.

### I. UMUMIY QOIDALAR

1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestastiyasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

2. Yakuniy davlat attestastiyasi oliy ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestastiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

3. Yakuniy davlat attestastiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholash;

yakuniy davlat attestastiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish;

komissiya faoliyati natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

4. Yakuniy davlat attestastiyasi komissiyalari o'z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa hujjatlarga tayangan holda olib boradilar.

### II. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVLARI

5. Yakuniy davlat attestastiyasi ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) o'quv rejalariga muvofiq quyidagi turlardagi attestastiya sinovlaridan iborat:

xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestastiya sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan o'tkazilishi mumkin);

ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlararo (majburiy fanlar) yakuniy davlat attestastiya sinovi;

diplom loyihasi himoyasi;

bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertastiyasi) himoyasi.

6. Xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestastiyasi sinovi mazkur fanning davlat ta'lim standartida belgilangan zaruriy mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv dasturida nazarda tutilgan

22. Fanlar dasturlarini o'zlashtirishda katta yutuqlarga erishgan va o'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida 3/4 qismi bo'yicha 86 ball va undan yuqori (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 71 balldan (5 baholik tizimda o'zlashtirish ko'rsatkichi 4 bahodan (yaxshi) kam bo'lmagan), shuningdek, yakuniy davlat attestastiyasi sinovlari bo'yicha kamida 86 ball (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchisiga «imtiyozli» diplom beriladi.

23. Yakuniy davlat attestastiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs o'qish muddati tugagandan so'ng, arizasiga muvofiq yakuniy davlat attestastiyasi sinovini keyingi 3 yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Yakuniy davlat attestastiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs keyingi o'quv yili boshlanganidan keyin yakuniy davlat attestastiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berishni so'rab oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) nomiga ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Bunda, shaxsga yakuniy davlat attestastiya sinovini keyingi har bir o'quv yilida (3 yil davomida) 2 martadan ortiq qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestastiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berish oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

24. Yakuniy davlat attestastiyasi sinovidan keyingi 3 yil davomida qayta o'ta olmagan talabaga akademik ma'lumotnoma beriladi va u o'rnatilgan tartibda, to'lov-kontrakt asosida tegishli bitiruv kursiga o'qish uchun qayta tiklanishi mumkin.

26. Uzrli sabab bilan yakuniy davlat attestastiyasi sinovlariga kelmagan talabalar rektorning buyrug'i bilan yakuniy davlat attestastiya komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan yakuniy davlat attestastiyasi sinovlariga kiritilishi mumkin.

27. Yakuniy davlat attestastiyasi sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan apellyastiya komissiyasi tuziladi.

Apellyastiya komissiyasi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (apellyastiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek tegishli sohaning malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining tajribali professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 kishidan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Apellyastiya komissiyasi tarkibiga joriy yilda yakuniy davlat attestastiyasi komissiyasi ishida ishtirok etgan shaxslarning kiritilishi taqiqlanadi.

28. Yakuniy davlat attestastiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestastiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyastiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

29. Apellyastiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim.

30. Yakuniy davlat attestastiyasi komissiyasining ishi bo'yicha yillik hisobot oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashida ko'rib chiqiladi. Mazkur Ilmiy kengashga yakuniy davlat attestastiyasi komissiyalari raislari taklif qilinadi.

## V. YAKUNIY QOIDALAR

31. Mazkur Nizomda belgilangan qoidalar bo'yicha nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

32. Ushbu Nizom O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, "O'zbekiston temir yo'llari" DAK, Davlat soliq qo'mitasi, Badiiy akademiya, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan kelishilgan.



"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009 yil, 23-son, 267-modda

**5610500– Sport faoliyati (futbol) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun umumkasbiy, ixtisoslik fanlaridan**
**Yakuniy davlat attestasiya sinovi yozma ishlarini**
**BAHOLASH MEZONILARI**

| | | | |
|---|---|---|---|
| Yozma ish uchun 4 tadan savol tuziladi va har bir savolga "0" balldan "25" ballgacha baholanadi. | 20-25-ball | Talaba berilgan yozma ishdagi 4 ta savolning har birini mohiyatini tushunishi, bilishi, tasavvurga ega bo`lishi lozim. Uni ilmiy asoslagan holda ijodiy fikrlab, mustaqil mushohada yuritib, imloviy xatosiz yoritib berishi hamda shu sovollarda berilgan ma'lumotlarni taqqoslay olishi, xulosa va qarorlar chiqargan holda, amalda qo`llay bilihi kerak. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo`lsa, yozma ishga maksimal 100 ball (4x25 ball) qo`yiladi. Talabaning fan bo`yicha o`zlashtirish ko'rsatgichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi (har bir savol uchun):<br>20-25 ball uchun talabaning bilim darajasi qo`yidagilarga javob berishi lozim:<br>xulosa va qaror qabul qilish: ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarni amalda qo`llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo`lish. | Umumiy ball - 100 ball |
| | 15-20 ball | Talaba berilgan yozma ishdagi 4 ta savol to`g`risida bilim va tasavvurga ega bo`lishi lozim. Savolni mohiyatini tushgungan holda mustaqil mushohada yuritib, savol mazmunini yoritib berishi kerak. Berilgan ilmiy ma'lumotlarni o`zaro taqqoshga qiynaladi, xulosalar yakuniga yetmagan. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo`lsa, yozma ishga 20 ball (5x4 ball) qo`yiladi. 15-20-ball ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim;<br>• mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo`llay olish;<br>• mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bulish. | 86-100-ball. A'lo, (86-100 %). |
| | 10-15 ball | Talaba yozma ishdagi 4 ta savolni mohiyatini tushunishi, tasavvurga ega bo`lishi, qisman bilishi hisobga olinadi. Ilmiy ma'lumotlar qisman yozilgan, bu ma'lumotlar asosida mustaqil fikr va xulosalar yurita olmaydi. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo`lsa, yozma ishga 15 ball qo`yiladi. 10-15-ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim;<br>• mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo`lish. | 71-85-ball. yaxshi (71-85 %). |
| | 5-10-ball | Talaba 4-ta savolning mohiyatini qisman tushunsa, ilmiy ma'lumotlarni yozishda xatoliklarga yo`l qo`ysa. Mustaqil fikr va xulosalar yoritilmagan bo`lsa, yozma ishga jami 10 ball qo`yiladi. | 55-70-ball. Qoniqarli, (55-70 %) |
| | 0-5 ball | Talaba 4-ta savolni mohiyatini tushunmasa, ilmiy ma'lumotlarni bayon etishda qo`pol xatoliklarga yo`l qo`yilsa, ma'lumotlar asosida mustaqil fikr yurita olmasa, yozma ishga jami 5 ball qo`yiladi. | 0-54 ball. Qoniqarsiz, (0-54 %) |

## 2.01. Jismoniy tarbiya va olimpia tarixi

**Fanni o'qitishdan maqsad** - talabalarning jismoniy tarbiya va sportni turli tarixiy davrlarda rivojlanish qonuniyatlari, tizimlari to'g'risidagi ilmiy-nazariy bilimlarini shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** – talabalarga jismoniy tarbiya va sport tarixini ilmiy- nazariy jihatdan tahlil qilish, jismoniy tarbiya va sport sohasida erishilgan yutuqlarni, O'zbekistonda jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixini, jismoniy tarbiya usullari, shakllari, vositalarini rivojlanishi hamda eng ilg'or tajribalarini o'rgatishdan iborat.

**I -modul. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi**

**1-mavzu. "Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi" faniga kirish. Qadimgi davrda jismoniy tarbiya**

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fanining asosiy maqsadi va vazifalari. Fanning mazmuni va asosiy tushunchalari. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fanining asosiy davrlari. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fanining o'rganish manbalari. Fanning jismoniy tarbiya va olimpiya sporti sohasidagi o'rni va ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati. Qadimgi davrda jismoniy tarbiyaning xususiyatlari. Qadimgi Sharq davlatlarida jismoniy tarbiya. Qadimgi Gretsiya davlatlarida jismoniy tarbiya. Sparta va Afina tarbiya tizimlari. Qadimgi olimpiya o'yinlari va ularning ahamiyati. Qadimgi Rimda jismoniy tarbiya.

**2- mavzu. O'rta asrlarda jismoniy tarbiya (V – XVII asrlar)**

O'rta asrlarda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiyaning rivojlanish xususiyatlari (V-XVII asrlar). Yevropa davlatlarida feodallar, dehqonlar va shaharliklarning jismoniy tarbiyasi. Ritsarlarni tarbiyalash tizimi. Gumanistlarning jismoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlari. Osiyo, Amerika va Afrika mamlakatlarida o'rta asrlarda jismoniy tarbiya.

**3- mavzu. Yangi davrda jismoniy tarbiya (XVIII – XIX asrlar)**

Yanga davrda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport. Jismoniy tarbiya nazariy asoslarining taraqqiy etishi. Yevropa mamlakatlarida gimnastika tizimlarining vujudga kelishi. Angliya va AQShda sport va sport o'yinlarining rivojlanishi. Osiyo, Amerika va Afrika mamlakatlarida jismoniy tarbiya.

**4- mavzu. Eng yangi davrda jismoniy tarbiya va olimpiya harakati (XX asr boshlari – hozirgi davrgacha)**

Eng yangi davrda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport rivojlanishining xususiyatlari. Jahon urushlari o'rtasidagi davrda chet el mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport. Jismoniy tarbiyaning harbiylashtirilishi. Sportning professional va zamonaviy yo'nalishlari. Xalqaro sport harakati vujudga kelishining asosiy omillari. Sportning taraqqiy etishi va xalqaro sport tashkilotlarining tuzilishi. Xalqaro sport federatsiyalari. Jahon, Yevropa va Osiyo chempionatlari. Hozirgi davrda sport harakatining rivojlanishi va dolzarb muammolari.

**II- modul. Xalqaro olimpiya harakati tarixi**

**5- mavzu. Qadimgi Olimpiya o'yinlari**

Qadimgi davrda Yunonistonda Olimpiya o'yinlari. Qadimgi Yunonistonda Olimpiya o'yinlarining vujudga kelishi. Qadimgi olimpiya o'yinlari haqidagi afsonalar. Qadimgi olimpiya o'yinlarining dasturi va ularning xususiyatlari. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy ahamiyati. Qadimgi yunon olimpiya o'yinlarining ta'qiqlanish sabablari.

**6- mavzu. Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishi**

Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash g'oyalarining rivojlanishi. XIX asrning oxirida zamonaviy olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasining hayotga tatbiq etilishi. P'yer de Kuberten hayoti va faoliyatining ahamiyati. I Xalqaro ta'sis Kongressi (1894) va uning tarixiy ahamiyati.



**7- mavzu. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi**

Xalqaro Olimpiya Ko'mitasi va uning faoliyati. Xalqaro olimpiya tizimining umumiy tuzilmasi. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ) va uning faoliyati. Olimpiya Xartiyasi – olimpiya harakatining asosiy huquqiy xujjati. XOQning maqsadi va vazifalari. XOQning tarkibi va asosiy organlari. XOQ sessiyalari. XOQ prezidentlari. XOQning shtab-kvartirasi.

Olimpiya kongresslari va ularning ahamiyati. Xalqaro Olimpiya akademiyasi va uning faoliyati. Xalqaro sport federatsiyalari (XSF) va ularning faoliyati. XSF Bosh Assambleyasi, unung maqsadi va vazifalari.

**8- mavzu. Qishki Olimpiya o'yinlari**

Qishki Olimpiya o'yinlarining umumiy tavsifi. 1924-1936 yillarda o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlari. 1948-1992 yillarda o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlari. 1994 yildan hozirgi davrgacha o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlari. Qishki olimpiya sport turlarining tavsifi va xususuyatlari. Olimpiya sport turlarining Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilish mezonlari.

**9- mavzu. Paralimpiya qo'mitasi**

Paralimpiya qo'mitasi. Paralimpiya o'yinlari. Paralimpiya o'yinlarining xususiyatlari. Paralimpiya sport turlarining tavsifi. Paraosiyo o'yinlari. Jahon talabalari Universiadalarining vujudga kelishi. Yozgi Universiadalar (1959 yildan hozirgi davrgacha). Qishki Universiadalar (1960 yildan hozirgi davrgacha). Jahon Yoshlar o'yinlari.

**10- mavzu. Olimpiya o'yinlariga kiritilgan sport turlari haqida umumiy tafsif**

Yozgi olimpiya o'yinlarida 1896-2022 yillarda kiritilgan sport turlari va ular haqida ma'lumot. Qishki olimpiya o'yinlariga 1924-2022 yillarda kiritilgan sport turlari va ular haqida ma'lumot. Paralimpiya o'yinlariga kiritilgan sport turlari va ular haqida ma'lumot.

**III-modul . O'zbekistonda jismoniy tarbiya va olimpiya harakati**

**11- mavzu. Markaziy Osiyoda qadimgi davr va o'rta asrlarda O'zbekistonga hozirgi zamon olimpiya harakatining kirib kelishi (XIX asr oxiri – XX asrning boshlari)**

Qadimgi davrda Markaziy Osiyoda jismoniy tarbiyaga oid arxeologik topilmalar va yozma manbalar. "Avesto"- qadimgi yozma ma'naviy va ma'rifiy manba sifatida. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ta'lim-tarbiya tizimi va turmush tarzida jismoniy tarbiyaning ahamiyati.

Qadimgi ajdodlarimiz jismoniy tarbiyasining xususiyatlari. Qadimgi O'zbekiston xalqlarining o'yinlari va jismoniy mashqlarining umumiy tavsifi. Markaziy Osiyoda o'rta asrlar davrida jismoniy tarbiya (IX – XVI asrlar). Sharqning buyuk alloma va mutafakkirlarining jismoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlari. Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida jismoniy tarbiya to'g'risida. Amir Temurning harbiy-jismoniy ta'limoti. O'rta asrlar davrida Markaziy Osiyo xalqlarining jismoniy mashqlari va milliy o'yinlari.

**12- mavzu. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va olimpiya harakati (1991 – 2000 yilgacha)**

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlanish xususiyatlari. Jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash. Mehnat va o'quv muassasalarida jismoniy tarbiya va sport. Sport inshootlarini qurish. Respublika va Butunittifoq spartakiadalari. O'zbekiston sportchilarining sobiq Ittifoq terma jamoasi tarkibida xalqaro sport musobaqalarida ishtiroki va yutuqlari

**13- mavzu. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va olimpiya harakati (2000 – hozirgi davrgacha)**

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi va istiqbollari. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi yangi

tahridagi Qonuni va uning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlari. Ommaviy sport tadbirlari. O'zbekistonda milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirishga doir musobaqalar. O'quvchi yoshlarning sport musobaqalari. Bolalar sporti. Ayollar sporti. Nogironlar va jismoniy imkoniyati cheklangan shahslarning moslashtiruvchi sportini rivojlantirish yo'llari.

**14- mavzu. O'zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanishi**

O'zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanish davrlari. O'zbekiston sportchilarining sobiq ittifoq terma jamoasi tarkibida 1952-1992, 1994-2024 yillarda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki.

O'zbekiston Respudlikasida mustaqillik yillarida olimpiya harakatining rivojlanishi. O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasining (O'zMOQ) tashkil topishi (1992). O'zMOQning XOQ tomonidan tan olinishi. O'zMOQ Nizomi Olimpiya xartiyasiga mos ravishda tuzilgan xujjat sifatida. O'zMOQning maqsadi va vazifalari. O'zbekiston MOQning tarkibi va asosiy organlari. O'zMOQ prezidentlari.

O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Akademiyasi, unung maqsadi va vazifalari. O'zbekiston sportchilarining Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki va yutuqlari.

**15- mavzu. Yozgi Olimpiya o'yinlari**

Yozgi Olimpiya o'yinlarining umumiy tavsifi. 1896-1912 yillarda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarining xususiyatlari. 1920-1948 yillardagi Olimpiya o'yinlarining xususiyatlari. 1952-1988 yillardagi Olimpiadalarning xususiyatlari. 1992 – hozirgi davrgacha o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarining xususiyatlari. Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazish tartiblari. Olimpiya o'yinlarini o'tkazish uchun saharni tanlash tartib-qoidalari. Olimpiya o'yinlari Tashkiliy qo'mitasining faoliyati.

**Asosiy adabiyotlar**


1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2015 yil 5 sentabrdagi soni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi tog'risida"gi Farmoni.- T.: "Adolat", 2017.
3. Kurbanov D.I. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi. Darslik B.: "Durdona"nashriyoti, 2023.
4. Rachel Bladon. The Story of Olympics: An Unofficial History. Oxford, Macmillan Publishen Limited, 2012.
5. L.B. Sobirova –Olimpiya va paralimpiya harakatining tarixi. O'quv qo'llanma Chirchiq-2020


**Qo'shimcha adabiyotlar**


6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston", 2017.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. T.: "Ma'naviyat", 2018.
9. Ergashev Q., Hamidov H. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2015.
10. Akramov A.K. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tarixi. O'quv qo'llanma. T.: O'zDJTI nashriyoti, 2002.
11. Ernazarov e. Olimpiada – jahon sporti bayrami. Ilmiy-ommabop risola. T.: "SHarq" nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2008.




## 2.13. Sport pedagogik mahoratini oshirish(futbol)

### I.Fanning mazmuni

**Fanni o'qitishdan maqsad** - futbol sport turini o'rgatishda talabalarda amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

**Fanning vazifasi** futbol sport turini harakatlanish texnikasini, o'yin texnikasini, taktik tayyorgarlikning asoslarini, harakatlarga o'rgatish usullari va vositalarini mashgulotlarda qo'llay olish, jismoniy tayyorgarlikni tarbiyalash va rivojlantirish vosita va usullarini, sport mashg'ulotlarini tashkil etish asoslari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

futbol o'yini texnikasining asosiy tushunchalari, atamalari;

futbol o'yiniga o'rgatishdagi vosita va usullari;

didaktik tamoyillar;

texnik usullar;

futbol o'yinining usullarini ijro etish;

futbol o'yini usullarini o'zlashtirish darajasini nazorat qilish va baholash testlari hamda uslublarni qo'llash;

futbol o'yini taktikasidagi asosiy tushunchalar, taktik tizimlar, strategiya va uning ahamiyati, futbolchilarning bajaradigan funksiyalari;

jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati;

jismoniy sifatlarni rivojlantirishning vosita va usullari;

texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikning o'zaro aloqadorligi haqida tasavvurga;

futbol o'yini elementlariga o'rgatish vositalari va usullarini qo'llash;

futbol texnikasiga o'rgatish vosita va usullarini qo'llash;

futbol taktikasiga o'rgatish vosita va usullarini qo'llash;

jismoniy tayyorgarlikni amalga oshirishda vosita va usullarini qo'llash;

turli yosh va malakadagi futbolchilarni va shug'ullanuvchilarni xususiyatlaridan kelib chiqib futbolga o'rgatish;

texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikni o'zaro birgalikdagi o'rgatish vosita va usullarini qo'llash;

futbol musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha amaliy ko'nikmalariga;

futbol sport turi bo'yicha turli mazmundagi va vazifali mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish;

texnik tayyorgarlikni amalga oshirishda vosita va usullarni to'g'ri tanlay bilish va ularni qo'llash;

taktik tayyorgarlikni amalga oshirishda vosita va usullarni to'g'ri tanlay bilish va ularni qo'llash:

**1-MODUL. Mutaxassislikka kirish**

**1-mavzu. Harakatlanish texnikasiga o'rgatish va ularni takomillashtirish**

Futbolchilarning asosiy harakatlanish texnikasiga o'rgatish va ularni takomillashtirishning amaliy usullari. Yugurish, sakrash va boshqa harakatlar texnikasiga o'rgatish va ularni takomillashtirish.

**2-mavzu. Futbolchilarning asosiy harakatlanish texnikasiga o'rgatish va ularni takomillashtirish**

Futbol o'yinining asosiy texnik xarakatlariga o'rgatish. Mos tarzdagi vosita va usullar bilan ularni rivojlantirib borish. Turli yoshda texnik malakalarni shakllantirish vosita va usullari. Futbolchilarning harakatlanish texnikasiga o'rgatish va uni takomillashtirish. Yugurish, sakrash va boshqa xarakatlar texnikasiga o'rgatish va ularni takomillashtirish. Tayyorgarlikni turli bosqichlarida vosita va usullarni qo'llash.

**2-MODUL. Futbol o'yinining asosiy texnik harakatlariga o'rgatish va ularni takomillashtirish**

**3-mavzu. To'p uzatish texnikasiga o'rgatish va uni takomillashtirish**

To'pni turli usullarda uzatish texnikasiga o'rgatish va ularni takomillashtirish. Texnikani egallash bo'yicha o'tiladigan mashg'ulotlardagi vositalar va usullar. Texnik malakalarni shakllanishdan keyingi barqarorlashtirish va mahoratni takomillashtirish vosita va usullari.

**4-mavzu. To'pni olib yurish texnikasiga o'rgatish va uni takomillashtirish**

To'pni turli usullarda olib yurish texnikasiga o'rgatish va ularni takomillashtirish. Tayyorgarlikni turli bosqichlarida vosita va usullarni qo`llash.

**5-mavzu. To'pni to'xtatish texnikasiga o'rgatish va uni takomillashtirish**

To'pni turli usullarda to'xtatish texnikasiga o'rgatish va ularni takomillashtirish. Tayyorgarlikni turli bosqichlarida vosita va usullarni qo`llash.

**6-mavzu. Raqibni aldab o'tish texnikasiga o'rgatish va uni takomillashtirish**

Raqibni turli usullarda aldab o'tish texnikasiga o'rgatish va ularni takomillashtirish. Tayyorgarlikni turli bosqichlarida vosita va usullarni qo`llash.

**7-mavzu. Raqibdan to'pni olib qo'yish texnikasiga o'rgatish va uni takomillashtirish**

Raqibdan turli usullarda to'pni olib qo'yish texnikasiga o'rgatish va ularni takomillashtirish. Tayyorgarlikni turli bosqichlarida vosita va usullarni qo`llash.

**8-mavzu. Darvozaga zarba berish texnikasiga o'rgatish va uni takomillashtirish**

Darvozaga turli usullarda zarba berish texnikasiga o'rgatish va ularni takomillashtirish. Tayyorgarlikni turli bosqichlarida vosita va usullarni qo`llash.

**9-mavzu. Standart vaziyatlarda texnik harakatlarni bajarishga o'rgatish va ularni takomillashtirish**

Turli standart vaziyatlarda texnik xarakatlarni bajarishga o'rgatish va ularni takomillashtirish.

**10-mavzu. Darvozabon o`yini**

Darvozabon o`yin mahoratiga binoan ko`pincha jamoaning yutuqlari batavsil bog`liqdir. Shuning uchun darvozabondan katta jismoniy tayyorgarlikni, epchillikni, tezkorlikni, chidamlilikni va sezgirlikni talab qiladi. Shu boisdan epchillikni tarbiyalashda, shuningdek huddi kuch va tezlikda ham oldingi yuklamadan nagruzka charchash alomatlari bo`lmagandagina, o`zlari mashqlarni bajaradilar.

**3-MODUL. Futbol taktikasiga o'rgatish va uni takomillashtirish.**

**11-mavzu. Yakka tartibdagi taktik xarakatlarga o'rgatish va ularni takomillashtirish**

Futbol o'yinining asosiy taktik xarakatlariga o'rgatish va ularni takomillashtirish. Xujumdagi va ximoyadagi yakka tartibdagi taktik xarakatlarga o'rgatish va ularni takomillashtirish.

**12-mavzu. Guruhli taktik xarakatlarga o'rgatish va ularni takomillashtirish**

Xujumdagi va ximoyadagi guruhli taktik xarakatlarga o'rgatish va ularni takomillashtirish. Guruhli kombinatsion xarakatlarga o'rgatish va ularni takomillashtirish. Ikki tomonlama o'yinlarda (murakkab sharoitlarda) o'zlashtirilgan xarakatlarni mustahkamlash. Turli tarkiblarda guruxli taktik xarakatlarga o'rgatish va ularni takomillashtirish.



**13-mavzu. Turli tizimlarda guruxli taktik xarakatlarga o'rgatish va ularni takomillashtirish**

Turli tizimlarda guruxli taktik xarakatlarga o'rgatish va ularni takomillashtirish. 1-3-4-3, 1-4-3-3, 1-4-4-2, 1-5-3-2, 1-5-4-1, va boshqa ko`rinichdagi tizimlarda o`zaro harakatlarni o'rgatish va takomillashtirish.

**14-mavzu. Jamoaviy taktik xarakatlarga o'rgatish va ularni takomillashtirish**

Jamoaviy kombinatsion xarakatlarga o'rgatish va ularni takomillashtirish. Ikki tomonlama o'yinlarda (murakkab sharoitlarda) o'zlashtirilgan jamoaviy kombinatsion xarakatlarni mustahkamlash. Turli tarkiblarda jamoaviy taktik xarakatlarga o'rgatish va takomillashtirish. Turli tizimlarda jamoaviy taktik xarakatlarga o'rgatish va takomillashtirish.

**4-MODUL. Jismoniy tayyorgarlik**

**15-mavzu. Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha o'quv-mashg'ulotlarni tashkil etish. Asosiy jismoniy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirish**

Jismoniy tayyorgarlik. Asosiy jismoniy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirish vosita va usullari.

**16-mavzu. Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'uloti. Epchillik jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish**

Turli yosh va malakaga ega futbolchilarni epchillik jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish vosita va usullari.

**17-mavzu. Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'uloti. Tezlik jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish**

Turli yosh va malakaga ega futbolchilarni tezlik jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish vosita va usullari.

**18-mavzu. Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'uloti. Egiluvchanlik jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish**

Turli yosh va malakaga ega futbolchilarni egiluvchanlik jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish vosita va usullari.

**19-mavzu. Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'uloti.**

Kuch jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish. Turli yosh va malakaga ega futbolchilarni kuch jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish vosita va usullari.

**20-mavzu. Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'uloti. Chidamlilik jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish**

Turli yosh va malakaga ega futbolchilarni chidamlilik jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish vosita va usullari.

**21-mavzu. Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'uloti. Maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirish**

Maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha o'quv-mashg'ulotlarni tashkil etish. Maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirish. Maxsus epchillik jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish.

**22-mavzu. Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'uloti. Tezlik-kuch, tezlik-chidamlilik, maxsus chidamlilik jismoniy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish**

Turli yosh va malakaga ega futbolchilarni tezlik-kuch, tezlik-chidamlilik, maxsus chidamlilik jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish vosita va usullari.

**23-mavzu. Maxsus egiluvchanlik jismoniy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish**

Turli yosh va malakaga ega futbolchilarni maxsus egiluvchanlik jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish vosita va usullari.

**24-mavzu. Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'uloti. Kuch- chidamliligi va boshqa jismoniy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirish**

Turli yosh va malakaga ega futbolchilarni kuch-chidamliligi jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish vosita va usullari.

**25-mavzu. Maxsus chidamlilik jismoniy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish**

Turli yosh va malakaga ega futbolchilarni maxsus chidamlilik jismoniy sifatini tarbiyalash va rivojlantirish vosita va usullari.

**5-MODUL. Texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikning birligi**

**26-mavzu. Texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha o'quv-mashg'ulotlarni tashkil etish**

Turli yosh va malakaga ega futbolchilarni texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikni tarbiyalash va rivojlantirish vosita va usullari. Tayyorgarlikni turli bosqichlarida vosita va usullarni qo`llash.

**27-mavzu. Bosh bilan o'ynash texnikasiga o'rgatish va uni takomillashtirish**

To'pni turli usullarda bosh bilan o'ynash texnikasiga o'rgatish va ularni takomillashtirish. Turli usullarda bosh bilan o'ynash texnikasini turli sharoitlarda (oddiy, murakkab, musobaqa) mustahkamlash.

**28-mavzu.To'pni yon chiziqdan o'yinga kiritish texnikasiga o'rgatish va uni takomillashtirish**

To'pni turli usullarda yon chiziqdan o'yinga kiritish texnikasiga o'rgatish va ularni takomillashtirish. Turli usullarda va turli sharoitlarda (oddiy, murakkab, musobaqa) harakatlarni mustahkamlash

**29-mavzu. Texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikning birligi. Majmuaviy yo'nalishga ega mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish**

Texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha o'quvmashg'ulotlarni tashkil etish. Turli yosh va malakali futbolchilarni tayyorlashga qaratilgan vosita va usullarni qo'llab mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari.

**30-mavzu. Nazorat va ikki tomonlama uchrashuvlarda o'rganilgan texnik va taktik harakatlarni mustahkamlash**

Nazorat va ikki tomonlama uchrashuvlarda o'rganilgan texnik va taktik harakatlarni mustahkamlash. Maxsus topshiriqli vazifalarni amalga oshirish.

**6-MODUL. Futbol bo'yicha musobaqalarni tashkil etish va xakamlik qilish**

**31-mavzu. Mashg'ulotlar davomida tashkil etiladigan musobaqalarda va futbol uchrashuvlarida hakamlikni amalga oshirish**

Futbol bo'yicha musobaqalarda hakam sifatida ishtirok etish va maxsus bilim, ko'nikma va malakalarni egallash.



**32-mavzu. Futbol bo'yicha musobaqalarni tashkil etish. Futbol bo'yicha musobaqalarda ishtirok etish**

Mutaxassislik gurux (futbol) talabalari o`rtasida musobaqalarni tashkil etish va o`tkazish. Musobaqalarda bevosita ishtirok etish va malakalarni oshirish.

**33-mavzu. Futbol bo'yicha musobaqalarda hakamlik qilish**

Futbol bo'yicha musobaqalarda bosh va yordamchi xakam sifatida ishtirok etish va malakalarni oshirish.

**Asosiy adabiyotlar**


1. Futbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. R.I.Nurimovning umumiy tahriri ostida. T.: «ILMIY TEXNIKA AXBOROTI – PRESS NASHRIYOTI». 2018. 316 b.
2. Sport va harakatli o`yinlarni o`qitish metodikasi (Futbol). DARSLIK. M.B.Ibragimov, B.B.Ibragimov. «Durdona». 2020. - 268 b.
3. Sport pedagogik mahoratini oshirish (futbol). Darslik. Sh.X.Isroilovning umumiy tahriri ostida. O'zR. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. O`zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti. T.: "IQTISOD- MOLIYA", 2015. - 224 b.
4. Sport pedagogik mahoratini oshirish (Futbol). Darslik. Sh.T.Iseyevning umumiy tahriri ostida. T.: «ILMIY TEXNIKA AXBOROTI PRESS NASHRIYOTI». 2018. - 312 b.
5. Sport va harakatli o'yilar (futbol) / darslik: Sh.X. Isroilov, Z.R.Nurimov, Sh.U.Abidov, S.R.Davletmuratov, A.A.Karimov. T.: «Sano- standart>> nashriyoti, 2017. - 320 b.


**Qo'shimcha adabiyotlar**


6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PQ-3031-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 23(783)-son. - 455 modda. - B.47-69.
7. Futbol: kniga-trener.- Moskva: Eksmo, 2015. – 272 il.
8. Jonatan Uilson. Kniga o futbolyx taktika. Strategiya na futbolnom pole/Dj. Uilson; [per. s ang. D.Kurochki]. Moskva: Eksmo, 2014. 352 s.
9. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning o`quv mashg'ulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. Uslubiy tavsiyanoma. T., O'zDJTI. 2011. - 38 b.
10. Artikov A.A. Alimjanov S.I. Shukurova Sh.T. Futbolchilarning mashg'ulot jarayonida pedagogik nazorat. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2014. -62 b.
11. Artikov A.A. Futbolchilarning pressing taktik harakatlari taxlili. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2013. - 67 b.
12. Artikov A.A. Shukurova Sh.T. Futbol sport turida taktik tizimlarining o`zgarishi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2015. - 50 b.
13. Artikov A.A. Shukurova Sh.T. Mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketish bilan o'ynaladigan musobaqa tizimi. Uslubiy tavsiyanoma. Toshkent. 2014. - 46 b.
14. Artikov A.A. Shukurova Sh.T. Musobaqalarni davrli tizimda o`tkazish tartibi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2015. - 50 b.
15. Bekturov O.Yo. Yosh futbolchilarning nazariy bilimlarini oshirish. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2013. - 35 b.
16. Davletmuradov S.R. Futbolchilarni tayyorlashda pedagogik nazorat. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2014. - 26 b.
17. Kuryazov R. Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2012. - 38 b.
18. Mirzaqulov A.G., To'laganov A.A., Po'latov S.N. Futbol o'yin qoidalari va musobaqalarni tashkil etish. O`quv uslubiy qo`llanma. Toshkent. 2014.52 b.
19. Ibragimov M.B. Zamonaviy futbolda texnika va taktika. O`quv uslubiy qo'llanma. «Buxoro». 2010. - 68 b.
20. Ibragimov M.B. Futbol madaniyati. O`quv qo'llanma. «Tafakkur bo`stoni». Toshkent. 2013. - 191 b.

## 2.12. Sport menejmenti

**Fanni o'qitishdan maqsad** - talabalarga iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

**Fanning vazifasi** talabalarni sport menejmenti va iqtisodiyoti haqidagi nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqarish masalalarini hal etish va undan samarali foydalanish to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- sport menejmentining mohiyati va tamoyillari, asosiy va aniq funkstiyalari, boshqaruv usullarini va ularni amal qilish hususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- jismoniy tarbiya va sport faoliyatida yangi zamonaviy boshqarish tizimini bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

**1-MODUL. Sport menejmenti asoslari**

**1-mavzu. O'zbekistonda sport menejmenti**

O'zbekiston sharoitida jahon moliyaviy inqirozi va sport menejmentining o'rni. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sport boshqaruvi. Sport menejmenti fanining predmeti va mazmuni. Menejment nazariyasining evolyustiyasi va uning sport menejmenti rivojidagi o'rni. Menejment nazariyasining o'rta asrdagi evolyustiyasi. Menejment nazariyasining yangi davridagi evolyustiyasi va uning sport rivojidagi o'rni.

**2-mavzu: Sport menejmentining asosiy tushunchalari**

Sport menejmentining boshqaruv prinsiplari. Sportda menejmentning vazifalari. Menejment usullarining mazmuni, mohiyati. Sport menejmenti asosiy usullarining tavsifi. Sport menejmentida ma'muriy-buyruqbozlik usullari. Sport menejmentida iqtisodiy usullar. Menejmentning ijtimoiy-ruhiy usullari.

**3-mavzu. O'zbekistonda sportni boshqarishning zamonaviy tizimlari**

Sportda hozirgi zamon boshqaruv tizimining shakllanishi. Sport menejmenti zamonaviy tizimini belgilovchi omillar. O'zbekistonda sport tashkilotlarining huquqiy asoslari. Sport tashkilotlarining bozor iqtisodiyoti sharoitidagi hususiyatlari.

**4-mavzu. Sport menejmentida ahborot ta'minoti va boshqaruv qarorlari**

Sport menejmentining ahborot ta'minoti. Sport menejmentda jarayonlarni ahborot bilan ta'minlash. Boshqaruv qarorlarining mohiyati va ularga qo'yiladigan talablar. Sport menejmentida boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

**5-mavzu. Sport turlarini rivojlantirishda sport menejmentning roli**

Sport menejmentining maqsadlari. Xalqaro sport aloqalarining rivojlanishida menejment va marketingining o'rni. Olimpiya harakati rivojida sport menejmentining o'rni.

**6-mavzu. Professional sport menejmenti**

Professional sportning mazmuni va mohiyati. Professional menejmentda korporativ boshqaruvning hususiyatlari. Professional sport menejmentini rivojlantirish omillari.

**7-mavzu. Sport menejmentida strategik konsepsiyalar**

Sport menejmentida strategik boshqaruv. Sport menejmentida sportni strategik rejalashtirish konsepsiyalari.



**8-mavzu. Xorijiy mamlakatlarda sport tashkilotlarining menejmenti**

Xorijiy mamlakatlarida sport menejmentining shakllanishi va rivojlanishi. Xorijiy mamlakatlarda sport marketingining konsepsiyasi. Xorijda sport aloqalarini rivojlanishida sport menejmentining ahamiyati.

**9-Mavzu. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning nazariy asoslari**

Jismoniy tarbiya va sport menejmentini jamiyatning iqtisodiy negizi bilan bog'lab, shu bilan birga boshqaruvning ikki: tashkiliy-texnikaviy va ijtimoiy- iqtisodiy tomonlarini hisobga olgan holda o'rganish lozim. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fanining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi qonun hamda qarorlar boshqarishning asosiy manbalari.

**10-Mavzu. Jismoniy tarbiya va sport sahosining me'yoriy huquqiy asoslar**

Davlatni idora qilish bo'yicha barcha faoliyatlarda Prezidentlik tizimi, Oliy Majlis hamda vazirliklar va jamoat tashkilotlarining o'rni. Boshqarish tamoyillari. "Jismoniy tarbiya harakati", "Boshqarish", "Boshqarish tizimlari, "Ilmiy boshqarish", "Boshqarish usullari" tushunchalarining umumiy ta'rifi.

**2-MODUL. Sport iqtisodiyoti 11-mavzu: Sport sanoati va sport turizmi**

Sport sanoatining asosiy qatnashchilari. Tomoshabinlar. Sport tovarlari va xizmatlari, ahborotlari ishlab chiqaruvchilar. Sportchilar va murabbiylar. Sport turizmi iqtisodiyoti. Professional sport iqtisodiyoti.

**12-mavzu: Jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish**

Jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirishning asosiy prinsiplari. Jismoniy tarbiya va sportni davlat tomonidan moliyalashtirilishi. Jismoniy tarbiya va sportni o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlanishi. Sport tashkilotlari va birlashmalarining tashkiliy-xuquqiy shakllari. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va yagona egalik. Xo'jalik sherikchiligi. Aksionerlik jamiyatlari. Notijorat jismoniy tarbiya sport tashkilotlari.

**13-mavzu: Sportda jamoatchilik bilan ishlash va reklama**

Reklama bu muomala vositasi sifatida. Reklamani rejalashtirish va uning turlari. Reklama tashuvchilari. Sotishni qo'llab-quvvatlash. Jamoatchilik bilan ishlash. (Public Relations)

**14- mavzu: Sportda va sport sanoatida tovar belgilari. Sport tovarlari va sportchilarga narx belgilash.**

Tovar belgilari va firma uslublari xaqida umumiy ma'lumot. Sport komandalari va klublarining nomlanishi. Sport biznesida rebrending. Tovar belgilari funksiyalari. Tovar belgilarining xuquqiy ximoyasi. Sport biznesida talismanlar. Sport tovarlari va xizmatlariga narx belgilash tartiblari. Sportchilarga narx belgilash tartibi. Sportchilarni ijaraga berish va ijaraga olish tartibi.

**15-mavzu: Sportda va sport sanoatida biznes rejalashtirish.**

Tadbirkorlik g'oyasi va uni amalga oshirish tartibi. Biznes reja va uning funksiyalari. Biznes rejaning ustida ishlash tartibi. Biznes rejaning tarkibiy qismlari. Kirish qismi. Asosiy qism. Ilovalar.

**16-mavzu: Sportda bashorat qilish va iqtisodiy-matematik modellashtirish**

Matematik modellashtirishning vazifalari va funksiyalari. Sport inshootlari tushunchasi. Sport inshootlari iqtisodiyoti. Ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi.

**17-mavzu: Jismoniy tarbiya va sportda mehnatga haq to'lash.**

Mehnatga haq to'lash turlari. Mehnat shartnomasi tushunchasi. Mehnat shartnomasi bo'yicha ishlash. Tomonlarning xuquq va majburiyatlari. Yagona tarif setkasi tushunchasi. Yagona tarif setkasi - O'zbekiston budjet xodimlari mehnatiga xaq to'lash quroli.

**18- mavzu: Korporativ sport**

Ishlab chiqarish jarayonlarida jismoniy tarbiya va sportning o'rni. Ishlab chiqarish xarajatlarini va ishlab chiqarish yo'qotishlarini pasaytirish. Maxsulot sifatini oshirish. Mehnat unumdorligini oshirish yo'llari. Jismoniy tarbiya va sport mehnatini ilmiy tashkil qilish tizimi.

**19-mavzu: Sportda va sport biznesida manfaatlarni ijtimoiy-iqtisodiy ximoya qilish.**

Ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilish tushunchalari. Sug'urta tushunchasi. Sug'urta turlari. Sportchilar va murabbiylarni sug'urta qilish. Jismoniy tarbiya va sportda kasaba uyushmalari. Sport biznesida tadbirkorlarning birlashishi.

**20-mavzu: Jismoniy tarbiya va sportda iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish va o'z-o'zini tartibga solish tartibi**

Iqtisodiy munosabatlarni reglamentlashtirish sohasida davlatning funksiyalari va roli. Jismoniy tarbiya va sport sohasida iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish. Sport tashkilotlarida iqtisodiy munosabatlarni o'zini- o'zi tartibga solish.

**Asosiy adabiyotlar**


1. Galkin N.K. "Ekonomi fizicheskoy kultury i sporta". Uchebnik - Moskva 2014 g.
2. Pol A. Samuelson, Uilyam D. Nordxaus. Iqtisodiyot. 19-nashr. McGraw-Hill kompaniyalari. AQSh. 2015 yil.
3. O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «Iqtisod- moliya», 2014. – 480 bet.


**Qo'shimcha adabiyotlar**


4. Aliev I.M. "Ekonomika truda" Uchebnik dlya bakalalov M.: Yurayt 2012. 344st.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O'zbekiston, 2014. – 46 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Jismoniy tarbia va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtish chora-tadbirlari" to'grisida PF 5368 05.03.2018
7. Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. T.: Fan va texnologiya, 2014. -476 s.
8. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: (2011 yil 1 iyulgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shim chalar bilan) Rasmiy nashr Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2011. - 276 b. O'zbekiston


**Internet saytlari**


9. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
10. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
11. www.stat.uz - O'zbekiston statistika qo'mitasi
12. www.ziyonet.uz - Ta'lim portali




## 3.01. Futbol nazariyasi va uslubiyoti

**Fanni o'qitishdan maqsad** futbol sport turini nazariy va amaliy asoslariga talabalarni o'rgatish va ularda kerakli ko'nikma va malakalarni shakillantirishdan iborat.

**Fanni vazifasi** - futbolni o'rgatish vositalari, uslub va uslubiyati, tamoyillari, mashg'ulot va musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish, futbol texnikasi va taktikasiga o'rgatish va rivojlantirish, jismoniy tayyorgarlikni tarbiyalash va rivojlantirish vosita va usullari, sport mashg'ulotlarini tashkil etish asoslari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga o'rgatishdan iborat.

**1-MODUL. Futbolning rivojlanish tarixi**

**1-mavzu. Mutaxassislikka kirish**

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan bakalavr-kadrlarning funksional faoliyati, jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy va boshqa muhim funksiyalari, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati, mazkur kasbning keng qamrovligi va ko'pfunksionalligi. Soha bo'yicha kadrni tayyorlashda ta'lim olishning o'ziga xos xususiyatlari bunda "Tanlangan sport turi nazariyasi va uslubiyoti (futbol)" fanining o'rni, uning boshqa fanlar va pedagogik kasb tayyorgarligini o'zga shakllari bilan uzviy bog'liqligi. O'qituvchi-trener kasbini tanlashning ijtimoiy-pedagogik va biopsixologik asoslari. O'qituvchi-trener kasbini tanlash motivatsiyasi. O'qituvchi-trenerning kasbiy-pedagogik funksiyalari.

**2-mavzu. Futbolni paydo bo'lish tarixi va taraqqiyoti**

Qadimgi davrlardagi va o'rta asrlarda futbolning paydo bo'lishi tarixi va taraqqiyoti. Futbolni jahonda rivojlanishi.

**3-mavzu. O'zbekistonda futbolni boshqarish sub'yektlari. O'zbekistonda futbolni boshqaruvchi davlat va jamoat organlari**

O'zbekistonda futbolni boshqaruvchi davlat va jamoat organlari, ularni tuzilishi va bo'linmalari. O'zbekiston Futbol Assosiatsiyasi. Tashkilotning maqsad va vazifalari, ish mazmuni va tarkibiy tuzilishi.

**4-mavzu. Futbolning kelib chiqish tarixi va uni rivojlanish bosqichlari. Futbolni jahonda va O'zbekistonda rivojlanishi**

Futbolni vujudga kelishi va uning mazmunini evolyutsion o'zgarishi, uning rivojlanish bosqichlari. Futbol bo'yicha Osiyo va Jahon chempionatlari, Olimpiya o'yinlari tarixi. O'zbekistonda futbolni rivojlanishi. O'zbek futbolchilarining mamlakat va xalqaro musobaqalarda ishtirok etish natijalari.

**2-MODUL. Sport tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmuni.**

**4-mavzu. Sport tayyorgarligining asosiy vositalari va usullari**

Sport tayyorgarligining maqsadi. Sport tayyorgarligining asosiy vazifalari. Sport tayyorgarligining asosiy vositalari. Sport tayyorgarligining asosiy usullari. Turli toifali futbolchilar sport mashg'ulotlarining maqsadi, vazifalari va mazmuni.

**4-mavzu. Futbolchilar tayyorlash tizimida tayyorgarlik turlari**

Tayyorgarlik turlari haqida tushuncha. Nazariy, psixologik, jismoniy, texnik, taktik tayyorgarliklarni amalga oshirishning umumiy qonuniyatlari. Tayyorgarlik turlarini amalga oshirishning o'ziga xos hususiyatlari.

**5-mavzu. Yosh futbolchilarni tayyorlash asoslari.**

Sport tayyorgarligi guruhlari. Har bir guruhning maqsad va vazifalari. Tayyorgarlik guruhlarida tayyorgarlik jarayonini rejalashtirish.

Yosh futbolchilarni tayyorlash asoslari. Tayyorgarlik guruhlari haqida tushuncha. Turli yosh va toifali futbolchilar tayyorgarligining umumiy tizimida tayyorgarlik turlarining ahamiyati, o'rni, maqsadi, vazifalari. Sog'lomlashtirish, boshlang'ich, o'quv-mashg'ulot, sport takomillashuvi va oliy sport mahoratini oshirish tayyorgarlik guruhlarida mos rejalashtiruv hujjatlari, o'quv-mashg'ulot dasturlari, me'yoriy talablar. Tayyorgarlik guruhlarida o'tkaziladigan tayyorgarlik turlari: jismoniy, texnik, taktik va boshqa tayyorgarliklarning mazmuni.

**3-MODUL. Musobaqalarni boshqarish. O'yinining qonun-qoidalari**

**6-mavzu. Futbol o'yini texnikasi**

"Texnika" atamasi haqida etimologik va ensiklopedik tushuncha. Sport texnikasining umumiy asoslari. Futbol o'yini texnikasining tasnifi. Sport mahoratini o'sishida texnikaning ahamiyati. Texnikani jismoniy va boshqa sifatlari bilan bog'liqligi. Turli amplua o'yinchilarining texnik tayyorgarligi. Tayyorgarlikning maqsadi va vazifalari. Darvozabon, himoyachi, yarim himoyachi, hujumchilarning texnik tayyorgarligi. Texnikaga o'rgatish uslubiyatining umumiy asoslari. O'rgatish jarayonining tartibi va bosqichlari: boshlang'ich, chuqurlashtirilgan, mukammallashtirilgan takomillashtirish bosqichlari. O'rgatish usullari va vositalari.

**7-mavzu. Futbolo'yini taktikasi**

"Taktika" atamasi haqida etimologik va ensiklopedik tushuncha. Futbolo'yini taktikasining tasnifi. Sport mahoratini o'sishida taktikasining ahamiyati. Taktikani jismoniy va boshqa sifatlari bilan bog'liqligi. Turli amplua o'yinchilarining taktik tayyorgarligi. Tayyorgarlikning maqsadi va vazifalari. Darvozabon, himoyachi, yarim himoyachi, hujumchilarning taktik tayyorgarligi. Taktikaga o'rgatishuslubiyatiningumumiyasoslari. O'rgatish jarayonining tartibi va bosqichlari: boshlang'ich, chuqurlashtirilgan, mukammallashtirilgan takomillashtirish bosqichlari. O'rgatishning usullari va vositalari. Yakka, guruhli va jamoaviy taktik harakatlari. O'yin tizimi, hujum va himoyada qo'llaniladigan taktik tizimlar, taktik "kombinatsiyalar", jamoani tashkil qilishda (yig'ishda, tayyorlashda) e'tiborga olinadigan shart-sharoitlar.

**8-mavzu. Hakamlik qilish**

Hakamlik qilish. Hakamning vazifalari. Bosh hakam bilan chiziq hakamlari o'rtasidagi ishlatiladigan signallar va imo-ishoralar.

**9-mavzu.Futbol o'yinining qonun-qoidalari**

Qonun-qoidalardagi tushuncha va izohlar. Futbol o'yinining qonunqoidalarini rivojlanish tarixi. Qonun-qoidalarning futbolchilarning tayyorgarligiga ta'sir etish masalalari.

**4-MODUL. Musobaqa turlari. Musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish**

**10-mavzu. Musobaqa qoidalari. Hakamlar. Hakamlikqilish uslubiyati**

Hozirgi kunda amaliyotda qo'llanilayotgan musobaqa qoidasini umumiy tafsiloti. Musobaqa qoidasini evolyutsion o'zgarishi va uni o'yin texnikasi va taktikasini rivojlanishiga ta'siri. Musobaqa qoidalaridagi oxirgi o'zgarishlarning tafsiloti. Hakamlarning huquq va vazifalari, maydondagi hakamlar. Hakamlik uslubiyatining umumiy masalalari. Yetuk hakamlar haqida ma'lumot.

**11-mavzu. Musobaqa Nizomi. Musobaqani o'tkazishning tashkiliyuslubiy masalalari**

Musobaqa Nizomi.Musobaqalarni turlari, tizimlari, turkumlarga bo'linishi va ularni rivojlantirish. Futbol musobaqalarining ijtimoiy, tarbiyaviy, biopsixologik va iqtisodiy ahamiyati. Musobaqalarni malakali sportchilar tayyorlashdagi o'rni va ahamiyati. Musobaqa Nizomi va uni tashkil qilish uslubiyati. Musobaqa o'tkazish maqsad va vazifalari. Musobaqaga rahbarlik qilish.



**5-MODUL. Tayyorgarlik turlari**

Sportchi tayyorgarligining turlari. Nazariy, psixologik, jismoniy, texnik, taktik tayyorgarlik. Turli yosh va toifali futbolchilar tayyorgarligining umumiy tizimida tayyorgarlik turlarining ahamiyati, o'rni va mazmuni.

**12-mavzu. Texnik tayyorgarlik**

Sportchi tayyorgarligining turlari. Nazariy, psixologik, jismoniy, texnik, taktik tayyorgarlik.

Turli yosh va toifali futbolchilar tayyorgarligining umumiy tizimida tayyorgarlik turlarining ahamiyati, o'rni va mazmuni. Texnik tayyorgarlik - sport mahoratini oshirish asosi. Texnik tayyorgarlikning ahamiyati. Texnik tayyorgarlikning maqsadi va asosiy vazifalari. Texnikani egallash bo'yicha o'tiladigan mashg'ulotlardagi vositalar va usullar. Texnik malakalarni shakllanishdan keyingi barqarorlashtirish mahoratni takomillashtirish vositalari va usullari, ularning xususiyatlari.

**13-mavzu. Texnik harakatlarni takomillashtirish usuliyati**

Turli bosqichlarda texnik tayyorgarlikning maqsadi va vazifalari. Texnik tayyorgarlikni amalga oshirishda tayyorgarlik davrlarining turli bosqichlari, tayyorgarlikni amalga oshirish xususiyatlari. Texnik tayyorgarlikni boshqa tayyorgarlik turlari bilan o'zaro bog'liqlikda amalga oshirish masalalari.

**14-mavzu. Taktik tayyorgarlik**

Taktik tayyorgarlikning ahamiyati. Taktik tayyorgarlikning maqsadi va asosiy vazifalari.

Taktik tayyorgarligi vositalarini va usullarini takomillashtirish istiqbollari. Indivudual taktika. Guruxli taktika. Jamoaviy taktika. Taktik tayyorgarlikning jismoniy va boshqa tayyorgarlik turlari bilan bog'liqligi. Tayyorgarlik darajasi xar xil bo'lgan futbolchilarning taktik tayyorgarligining xususiyatlari. Indivudual, guruxli va jamoaviy taktik harakatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.

**15-mavzu. Turli amplua futbolchilarining o'yin taktikasi**

Taktik mahoratning ahamiyati. Hujumchi, himoyachi, yarimhimoyachi va darvozabonlarnihg o'yin taktikasining tavsifi. Futbolchilarda taktik tafakkurni tarbiyalash, taktik mahorat va malakalarni xosil qilish.

**16-mavzu. Jismoniy tayyorgarlik**

Jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati. Jismoniy tayyorgarlikning maqsadi va asosiy vazifalari. Jismoniy tayyorgarlikning vositalari va takomillashtirish istiqbollari. usullari. Tayyorgarlikni Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni birligi.

Jismoniy tayyorgarlikni boshqa tayyorgarlik turlari bilan bog'liqligi. Tayyorgarlik darajasi xar xil bo'lgan futbolchilarning jismoniy tayyorgarligining xususiyatlari. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik. Turli yoshdagi va turli toifadagi sportchilar uchun jismoniy tayyorgarlik vositalari va usullari.

**17-mavzu. Jismoniy sifatlarni tarbiyalash, rivojlantirish va ularni rivojlanganlik darajasini aniqlash**

Futbolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi mazmuni, xususiyatlari hamda bir-biri bilan o'zaro aloqadorligi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalari (akrobatika, yengil atletika, sport o'yinlari va boshqalar). Futbolchilarni tezligi, kuchi, chidamliligi, egiluvchanligi va chaqqonligini tarbiyalash usullari. Futbolchilarning maxsus jismoniy sifatlari. Maxsus jismoniy

tayyorgarlikning vositalari va usullari. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni aniqlash testlari.

**18-mavzu. Futbolchilarning psixologik tayyorgarligi**

Ma'naviy-irodaviy tayyorgarlik. Ma'naviy-irodaviy tayyorgarlikning ahamiyati. Turli toifali futbolchilar psixologik tayyorgarligining maqsadi va vazifalari. Psixologik tayyorgarlikning vositalari va usullari. Psixologik tayyorgarlikni boshqa tayyorgarlik turlari bilan bog'liqligi. Tayyorgarlik darajasi xar xil bo'lgan futbolchilarning psixologik tayyorgarligining xususiyatlari. Umumiy va maxsus psixologik tayyorgarlik. Turli yosh va toifadagi sportchilarning psixologik tayyorgarlik vositalari va usullari. Irodaviy tayyorgarlik. Psixologik muvofiqlashuv va sharoitga o'z-o'zini moslashtirishning maxsus usullari. Sport formasi. Futbol musobaqalariga o'zini tayyorlab, safarbar qilishning xususiyatlari.

**6-MODUL. Futbol o'yini texnikasi**

**19-mavzu. Futbol o'yini texnikasi va uning tasnifi**

Futbol o'yin texnikasi, sport texnikasining umumiy tushunchasi. Futbol o'yini texnikasining tasnifi. Texnika samaradorligining belgilovchilari. Sport texnikasiga o'rgatish jarayonidagi boshqaruv. Maydon o'yinchisining texnikasi. Darvazabon texnikasi. Hujumdagi texnik harakatlar. Himoyadagi texnik harakatlar. Sport texnikasi bilan jismoniy tayyorgarlik, texnika bilan taktikaning o'zaro aloqadorligi. Mamlakatimizdagi va dunyodagi yetakchi o'yinchilar texnikasi.

**7-MODUL. Futbol o'yini taktikasi**

**20-mavzu. Futbol o'yini taktikasi va uning tasnifi.**

Futbol o'yin taktikasi. Taktikaning umumiy tushunchasi. Futbol o'yini taktikasining tasnifi. Taktika samaradorligini belgilovchi omillar. O'yinchilar funksiyasi, uning mazmuni.

**21-mavzu. Futbol o'yini taktikasi va strategiyasi hamda uni belgilovchi omillar**

O'yin strategiyasi, uslubi, sur'ati, o'ziga xos usullari to'g'risidagi umumiy tushunchalar. Ratsional taktika alomatlari. Taktik tafakkur va uning tashkil etuvchilari. Taktik harakatlanishning mahorati. Taktik harakatlar uchun o'quv maqsadlar. Hujum taktikasi. To'p va to'psiz bajariladigan harakatlar. Himoya taktikasi. To'p va to'psiz bajariladigan harakatlar. Taktika samaradorligini baholash usullari.

**8-MODUL. Futbolchilarni tanlab olish**

**22-mavzu. Yosh futbolchilarni tanlab olish**

Yosh futbolchilarni tanlash. Tanlab olish me'zonlari. Iqtidorli va qobiliyatli futbolchilarni aniqlash. BO'SM, ROZK futbol maktablariga qabul qilish va tanlab olish tizimi.

**23-mavzu. Tanlov tizimi**

Iqtidorli va qobiliyatli sportchi tushunchasi. Tanlov tizimi sportchilarni tayyorlash tizimning tarkibiy qismi sifatida. Tanlov tamoyillari, asosiy tanlov yo'llari, yangi mashq boshlayotgan o'yinchilar saloxiyatini uzoq muddatli bashorat qilish yo'llari. Sportchining asosiy barqaror bo'lgan, kamdan-kam o'zgarishlarga uchraydigan qobiliyatlarini bashorat qilish.

**9-MODUL. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida va BO'SM ishlarini rejalashtirish**

**24-mavzu. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sport seksiyasi mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida futbol seksiyasi ishlarini rejalashtirish (soatlarni hisoblab-taqsimlab chiqish, umumiy ish rejasi, istiqbolli, yillik, oylik va tezkor reja tuzish va b.). Kalendar reja tuzish va musobaqalar to'g'risidagi Nizom.



**25- mavzu. BO'SM, olimpiya zaxiralari bilim yurtlarida yosh futbolchilarni tayyorlashni rejalashtirish**

BO'SM, Futbolga ihtisoslashtirilgan maktab internati to'g'risidagi Nizom. Ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy maqsad va vazifalar. Ta'lim muassasalari futbolchilari bilan o'quv-mashg'ulot ishlarini tashkil etish. Ta'lim muassasalari pedagogik kadrlar kontingenti.

**10-MODUL. Tayyorgarlik turlari va ularni rejalashtirish**

**26-mavzu. Ko'p yillik tayyorgarlikni rejalashtirish**

Rejalashtirish turlari: istiqbolli, joriy va tezkor rejalashtirish. Rejalashtirish turlarining uzviyligi va izchilligi. Ko'p yillik rejalashtirishning ahamiyati va mazmuni.

**27-mavzu. Mashg'ulot jarayonini rejalashtirish va uning xususiyatlari**

Futbolchilarning tayyorgarlik tizimida rejalashtirishning ahamiyati. Mashg'ulotlarni tashkil etishda rejalashtirishning ahamiyati va turli tayyorgarliklarni amalga oshirishdagi ko'rinishlari. Istiqbolli, joriy va tezkor rejalashtirish va ularning husiusiyatlari.

**28-mavzu. Sport mahoratini takomillashtirib borishni rejalashtirish**

Sport mashg'ulotini rejalashtirish. Mashg'ulot jarayonini rejalashtirish xususiyatlari. Turli mashg'ulot sikllarida rejalashtirish. O'yinlararo sikllarining ishlab chiqilishi. Yillik mashg'ulot siklining turli bosqichlarida jismoniy texnik va taktik tayyorgarlikni rejalashtirish (mazmuni va nisbatlari).

**11-MODUL. Jamoaga rahbarlik qilish**

**29-mavzu. Musobaqalar vaqtida jamoaga rahbarlik qilish**

Bo'lajak o'yinga taktik rejani tuzish. Raqib to'g'risida axborot to'plash.

O'yin yuzasidan ko'rsatmalar berish. O'yinchilarni kuzatish va tahlil qilish usullari. O'yinni kuzatish va tahlil qilish usullari.

**30-mavzu. Murabbiy faoliyatining pedagogik va psixologik tavsifi**

Murabbiy tarbiyachi sifatida. Murabbiy-shogird ijodiy tizimi. "Murabbiy jamoa"ning o'zaro munosabatlar. Jamoani boshqarish usullari. Murabbiyning pedagogik qobiliyati. Murabbiyning shaxsiy sifatlari: axloqiy sifatlar, umumiy fazilatlar va kasbga oid sifatlari.

**12-MODUL. Futbolchi organizmini tiklash tadbirlari**

**31-mavzu. Futbolchilarni tayyorgarlik jarayonida tiklanish tadbirlari.**

Qayta tiklanishning pedagogik, psixologik, tibbiy-biologik usullari. Futbolchilarni tayyorlash tizimida qayta tiklanishning ahamiyati. Uning amalga oshirish yo'llari va usullari. Qayta tiklanishni samarali amalga oshirish omillari. Qayta tiklanishning pedagogik, psixologik, tibbiy-biologik usullari.

**13-MODUL. Tayyorgarlikni nazorat qilish va hisobga olib borish**

**32-mavzu. Sport sohasidagi takomillashuvni nazorat qilish va hisobga olib borish**

Nazorat turlari. Nazoratning ahamiyati. Sport sohasidagi takomillashuvni nazorat qilish va hisobga olib borishning ahamiyati. Tezkor, joriy va bosqichli nazorat.

**33-mavzu. Nazorat turlari**

Pedagogik nazorat usullari, ularning ahamiyati va mazmuni. Tibbiy nazorat. Psihologik nazorat. Nazorat mashqlari majmui va turli testlardan foydalanish.

**14-MODUL. Ilmiy ishlarni tashkil etish va olib borish**

**34-mavzu. Talabalarning ilmiy ishlarini tashkil etish va olib boorish**

Tadqiqot mavzusini tanlash. Mavzuning dolzarbligi, yangiligi, amaliy ahamiyatini belgilash. Mavzuga muvofiq tadqiqot yuzasidan tanlangan usullar va uslubiyatlarni asoslash va ulardan foydalanish. Eksperiment olib borish. Malumotlarni tahlil etish.

**Asosiy adabiyotlar**

1. Futbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. R.I.Nurimovning umumiy tahriri ostida. T.: «ILMIY TEXNIKA AXBOROTI – PRESS NASHRIYOTI». 2018. 316 b.

2. Sport va harakatli o`yinlarni o`qitish metodikasi (Futbol). DARSLIK. M.B.Ibragimov, B.B.Ibragimov. «Durdona». 2020. - 268 b.

3. Sport pedagogik mahoratini oshirish (futbol). Darslik. Sh.X.Isroilovning umumiy tahriri ostida. O'zR. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti. T.: "IQTISOD- MOLIYA", 2015. - 224 b.

4. Sport pedagogik mahoratini oshirish (Futbol). Darslik. Sh.T.Iseyevning umumiy tahriri ostida. T.: «ILMIY TEXNIKA AXBOROTI PRESS NASHRIYOTI». 2018. - 312 b.

5. Sport va harakatli o'yilar (futbol) / darslik: Sh.X. Isroilov, Z.R.Nurimov, Sh.U.Abidov, S.R.Davletmuratov, A.A.Karimov. T.: «Sano- standart>> nashriyoti, 2017. - 320 b.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 23(783)-son. - 455 modda. - B.47-69.

7. Futbol: kniga-trener.- Moskva: Eksmo, 2015. – 272 il.

8. Jonatan Uilson. Kniga o futbolyx taktika. Strategiya na futbolnom pole/Dj. Uilson; [per. s ang. D.Kurochki]. Moskva: Eksmo, 2014. 352 s.

9. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning o'quv mashg'ulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. Uslubiy tavsiyanoma. T., O'zDJTI. 2011. - 38 b.

10. Artikov A.A. Alimjanov S.I. Shukurova Sh.T. Futbolchilarning mashg'ulot jarayonida pedagogik nazorat. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2014. -62 b.

11. Artikov A.A. Futbolchilarning pressing taktik harakatlari taxlili. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2013. - 67 b.

12. Artikov A.A. Shukurova Sh.T. Futbol sport turida taktik tizimlarining o'zgarishi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2015. - 50 b.

13. Artikov A.A. Shukurova Sh.T. Mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketish bilan o'ynaladigan musobaqa tizimi. Uslubiy tavsiyanoma. Toshkent. 2014. - 46 b.

14. Artikov A.A. Shukurova Sh.T. Musobaqalarni davrli tizimda o'tkazish tartibi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2015. - 50 b.

15. Bekturov O.Yo. Yosh futbolchilarning nazariy bilimlarini oshirish. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2013. - 35 b.

16. Davletmuradov S.R. Futbolchilarni tayyorlashda pedagogik nazorat. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2014. - 26 b.

17. Kuryazov R. Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2012. - 38 b.

18. Mirzaqulov A.G., To'laganov A.A., Po'latov S.N. Futbol o'yin qoidalari va musobaqalarni tashkil etish. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2014.52 b.

19. Ibragimov M.B. Zamonaviy futbolda texnika va taktika. O'quv uslubiy qo'llanma. «Buxoro». 2010. - 68 b.

20. Ibragimov M.B. Futbol madaniyati. O'quv qo'llanma. «Tafakkur bo`stoni». Toshkent. 2013. - 191 b.

21. Ibragimov M.B. Futbol tibbiyoti. O'quv qo'llanma. «Tafakkur bo`stoni». Toshkent. 2018. - 265 b.



**5610500– Sport faoliyati (futbol) ta'lim yo'nalishida ixtisoslik fanlardan yakuniy davlat attestatsiyasi savollari**

## 2.01. Jismoniy tarbiya va olimpia tarixi

1. O`zbekiston Respublikasi «Jismoniy tarbiya va sport to`g'risida»gi qonuning ahamiyati?
2. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasini tashkil topishi, Olimpiya kongresi?
3. O'rta asrlarda o'tkazilgan bayramlar va an'anaviy marosimlarda qanday yangi sport turlari, jismoniy mashqlar, o'yinlar yuzaga kelgan?
4. O`zbekiston Milliy Olimpiya Qo`mitasi, maqsadi va vazifalari?
5. Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida jismoniy tarbiya to`g'risida?
6. Qadimgi davrda jismoniy tarbiya paydo bo'lishining asosiy omillari?
7. O`rta asrlarda Osiyo, Amerika va Afrika mamlakatlarida jismoniy tarbiya?
8. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi va istiqbollari?
9. Jismoniy tarbiyada o'qitish faoliyatining axloqiy tarbiyalashdagi o'rni?
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpia Qo'mitasi vazifalarini nimalardan iborat?
11. Abdulla Avloniyning jismoniy tarbiya to`g'risidagi fikrlari?
12. O`zbekistonda olimpiya sport turlarining rivojlanishi?
13. Qadimgi Olimpiya o'yinlari tarixi haqida nazariy ma'lumot bering?
14. Olimpiya o`yinlarining xususiyatlari (1896– hozirgi davrgacha)?
15. O`zbekiston sportchilarining 1952–1992 yillardagi Olimpiya o`yinlarida ishtiroki?
16. Butunjahon antidoping agentligi (WADA) va uning faoliyati?
17. Patriarxat davridagi jismoniy tarbiya haqida nazariy ma'lumot bering?
18. Olimpiya o'yinlaridagi boykotlar va siyosiy namoyishlar?
19. Amir Temurning harbiy-jismoniy ta'limoti?
20. Sparta va Afinaning jismoniy tarbiya tizimidagi farqlar nimalardan iborat edi?
21. O`zbekiston Respublikasi Milliy antidoping agentligi faoliyati?
22. Amir Temur yashagan davrda jismoniy tarbiya?
23. Olimpiya ramzlarini ifodalab bering?
24. O'rta asrlarida Osiyo, Afrika va Amerika xalqlarining jismoniy tarbiyasi qanday xarakterga ega bo'lgan?

**5610500– Sport faoliyati (futbol) ta'lim yo'nalishida ixtisoslik fanlardan yakuniy davlat attestatsiyasi savollari**

## 2.13. Sport pedagokik mahoratini oshirish(futbol)

1. Murabbiyning me'yoriy hujjatlarni yurgizish uslublari?
2. Futbol sport turida bo'yicha sport maktablarida mashg'ulotlarni tashkillashtirish va o'tkazish uslublari?
3. Jismoniy tarbiya darslarining tasnifi?
4. O'quvchilarni aqliy rivojlantirishda jismoniy mashq mashg'ulotlarining ahamiyati?
5. Futbol bo'yicha murabbiyning intellektual qobiliyatini rivojlantirish?
6. Jismoniy tarbiya darslari - maktabda jismoniy tarbiya va ta'limning tarkibiy qismi?
7. Futbol sport turida jismoniy sifatlarni rivojlantirish uslublari?
8. Murabbiyning futbolga o'rgatishda texnik vositalardan foydalanish uslublari?

9. Jismoniy tarbiyada bilimlarni rivojlantirish jarayonida uning tavsifining o'zgarishi?
10.Jismoniy mashq mashg'ulotlari jarayonida tarbiyaviy prinsiplarning hal qilinishi?
11.Futbol bo'yicha yuqori malakali mutaxassis tayyorgarligi?
12.O'quvchilar jismoniy tarbiyasining ahamiyati, mashg'ulotlarning asosiy shakllari?
13.Harakatlarga o'rgatishda bilimdan foydalanish?
14.Futbol bo'yicha Murabbiyning tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish?
15.Umumiy jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish?
16.Futboli bo`yicha musobaqalar o`tkazishda kerakli jihozlar?
17.Jismoniy tayyorgarlik haqida tushuncha?
18. Tayyorgarlik tomonlari (mavjud me'yor)?
19.Musobaqa faoliyatini nazorat va tahlil qilish?
20.Futbolchilarning muayyan musobaqaga ruhiy tayyorgarligi?
21.Futbol bo'yicha Murabbiyning axborot yig'ish qobiliyatini rivojlantirish?
22.Murabbiydagi tashabbuskorlik va intizomlilik qobiliyatini rivojlantirish?
23.Murabbiydagi emotsional kechinmalarni boshqarish qobiliyatini rivojlantirish?
24.Futbol bo'yicha musobaqa qoidalari va xakamlik qilish asoslari?
25.Futbol bo'yicha murabbiyning taktik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish?

**5610500– Sport faoliyati (futbol) ta'lim yo'nalishida ixtisoslik fanlardan yakuniy davlat attestatsiyasi savollari**

**2.12. Sport menejmenti**

1. Jismoniy tarbiya va sport sohasini boshqarish tizimlari?
2. Sport menejmentida reklamaning o'rni va ahamiyati?
3. Sport menejmenti fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi?
4. Transport shartnomasi nima maqsadda tuziladi va unga nimalar aks ettiriladi?
5. Xalqaro Olimpiya qo'mitasining faoliyatiga izoh bering?
6. Reklamaning asosiy vazifasi nimalardan iborat?
7. Sport menejmenti fanining rivojlanish tarixi?
8. Sport marketingning mohiyati va ahamiyati?
9. Milliy Olimpiya qo'mitasining faoliyatiga izoh bering?
10.Xalqaro olimpiya o'yinlari haqida ma'luot bering?
11.Xalq milliy o`yilari markazi, uning ommaviy jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilishdagi faoliyati?
12.Davlat byudjeti xarajatlari nima?
13.Jismoniy tarbiya va sportni tashkil qilishda jamg'arma uyushmalarining faoliyatlari?
14.O`zbekistonda sportni boshqarishning zamonaviy tizimlari?
15.Jismoniy tarbiya va sport harakatida partiyalarning ishtiroki?
16.Sport menejmentida reklamaning o'rni va ahamiyati?
17.Reklamaning asosiy vazifasi nimalardan iborat?
18.Jismoniy tarbiya va sport sohasiga menejerlar tayyorlash haqida nimalarni bilasiz?
19.Sport federatsiyalari tuzilishi, ish mazmuniga ta'rif bering?
20.Tovarlar va nufuz reklamasi haqida nimalarni bilasiz?
21.«Rahbar» va «Menejer» tushunchalariga aniqlik kiriting?
22.Davlat byudjeti xarajatlari nima?
23.Menejmentning iqtisodiy usullari haqida yozing?



24.Reklamaning bevosita va bilvosita turlariga izoh bering?
25.Sport menejmenti fanining rivojlanish tarixi haqida nimalar bilasiz?

**5610500– Sport faoliyati (futbol) ta'lim yo'nalishida ixtisoslik fanlardan yakuniy davlat attestatsiyasi savollari**

**3.01. Futbol nazariyasi va uslubiyoti**

1. Darslarni tashkil qilishning "frontal" usuli?
2. Jismoniy tarbiya darsi asosiy qismining asosiy vazifalari?
3. Jismoniy tarbiyada o'qitish faoliyatining axloqiy tarbiyalashdagi o'rni?
4. Davolovchi jismoniy madaniyat darslari?
5. O'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash jismoniy mashq mashg'ulotlarining ahamiyati?
6. Jismoniy tarbiya darsi yakunlovchi qismining asosiy vazifalari?
7. Darslarni tashkil qilishning "zveno" ("guruh") usuli?
8. O'quvchilarning estetik tarbiyasida jismoniy mashq mashg'ulotlarining o'rni?
9. Bilim – jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismi?
10. Umumiy jismoniy tarbiya darslari?
11.Darslarni tashkil qilishning "aylanma mashq" usuli?
12.Sport trenirovkasi darslari?
13.Futbolchilarning musobaqadan keyingi psixologik tiklanishi?
14.Ko'p yillik tayyorgarlik tizimi qaysi omillarga bog'liq?
15.Osiyo o'yinlari tarixini tariflab bering?
16.Futbol sport turida bo'yicha sport maktablarida mashg'ulotlarni tashkillashtirish va o'tkazish uslublari?
17.Murabbiyning me'yoriy hujjatlarni yurgizish uslublari?
18.Jismoniy tarbiya darsining "dars mazmuni"?
19.Jismoniy tarbiyada ma'naviy ong va axloqiy-xulq tajribasini shakllantirish?
20.Jismoniy tarbiya darsining tuzilishi (strukturasi)?
21.Jismoniy tarbiyada ma'naviy ong va axloqiy-xulq tajribasini shakllantirish?
22.Jismoniy tarbiya darsining tuzilishi (strukturasi)?
23.Futbol o'yinining taktikasi evolyutsiyasi?
24.Jismoniy tarbiya darsi tayyorlov qismining asosiy vazifalari?
25.Futbolchilarning psixologik tayyorgarligi?